



YANGI O'ZBEKISTONDA YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI

Nodira Nabiyevna Safixodjayeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

"O'zbekiston tarixi" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20620126>

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif so'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat masalasida aynan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar masalasiga to'xtalib o'tgan. Xususan, O'zbekistonda "Mehribonlik" uylari faoliyatining tugatilishi, ularda tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oila muhitiga yaqin bo'lgan sharoitlarda o'sishlarini ta'minlash maqsadida ishga tushirilgan mexanizmlar haqida ma'lumot bergan.

Аннотация

В данной статье автор рассматривает вопросы реформ, реализуемых в последние годы в рамках социальной политики Узбекистана, направленных на поддержку детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. В частности, освещаются процессы прекращения деятельности домов «Мехрибонлик» в Узбекистане, а также механизмы, внедрённые с целью обеспечения детям-сиротам и детям, оставшимся без попечения родителей, условий для воспитания и развития в среде, максимально приближённой к семейной. Анализируются основные направления государственной политики и практические меры, направленные на защиту прав и интересов данной категории детей.

Abstract

This article examines the reforms implemented in recent years within the framework of Uzbekistan's social policy aimed at supporting orphans and children deprived of parental care. In particular, it discusses the closure of orphanage in Uzbekistan and highlights the mechanisms introduced to ensure that orphans and children deprived of parental care are raised and developed in conditions that are as close as possible to a family environment. The article also analyzes the key directions of state policy and the practical measures undertaken to protect the rights and interests of this category of children.

Bugun O'zbekiston o'zining yangi taraqqiyot bosqichini bosib o'tmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan qator islohotlarning zamirida inson qadr-qimmatini oshirish hamda xalqparvar davlat barpo etish vazifasi turibdi. O'zbekiston Respublikasi 2016-yildan boshlab barcha ijtimoiy






sohalarni qamrab oladigan, hukumatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatining yangi standartini belgilaydigan va O'zbekistonda bolalar huquqlarini amalga oshirish istiqbollari qayta ko'rib chiqadigan islohotlar jarayonini boshlab yubordi. Davlat tomonidan joriy qilingan yangi tizim bu jarayonni sifat jihatdan yangiladi hamda yangi bosqichga olib chiqdi.

Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy ta'minot tizimini isloh qilish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirishga bog'liq. O'zbekistonda bolalarni zo'ravonlik, ekspluatatsiya, shafqatsiz va kamsituvchi muomaladan himoya qilish, milliy me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish borasida muhim islohotlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Paxta yig'im-terimida muntazam bolalar mehnatidan foydalanishga barham berildi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni, shuningdek, nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun internat muassasalariga joylashtirishni kamaytirish va oldini olish maqsadida bolalarni deinstitutionallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy va milliy darajadagi siyosatni ishlab chiqishda bolalar va yoshlarni o'z manfaatlariga ta'sir qiladigan qarorlarni qabul qilishda ularning fikrini inobatga olgan holda jalb qilish amaliyoti va mexanizmlarini kuchaytirish zarur, bu bolalar va yoshlarning jamiyatdagi ishtiroki uchun huquqiy bazani kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, tinglanish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Ayniqsa, institusional muassasa tarbiyalanuvchisi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda uzoq yillar ilgari vaqtdan boshlab tashkil etila boshlangan "Mehribonlik" uylari yetim bolalar va oilasiz qolgan bolalar uchun mavjud bo'lgan tarbiya tizimi, afsuski, ko'plab yechimlarni taklif etmagan. O'z davri uchun eng maqbul yechim hisoblangan bunday muassasalar vaqtlar o'tishi bilan o'zining salbiy oqibatlarini namoyon etdi. Mazkur masalada Prezident Sh.Mirziyoyev ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalarni belgilab olishni ta'kidlab: "Albatta har bir go'dak bu yorug' dunyoga kelar ekan, unga hamma ota-onasi bag'rida yayrab o'ssin, baxtli-saodatli bo'lsin, deb tilak bildiradi. Lekin taqdir taqozosi bilan ularning ayrimlari ota-ona mehridan benasib qoladi. Bunday holatda bu norasida bolalarning aslo aybi yo'q ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz, albatta... Lekin bugun o'zimizga savol beraylik, ushbu mehrga muhtoj bolalar g'amxo'rlikni his qilyaptimi?"[1], deb ta'kidlagan edi.





Rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistondagi internat muassasalarida yashovchi bolalarning ulushi shu yoshdagi aholining har 100 ming kishisiga 255 tani tashkil yetar edi. Bu ko'rsatkich albatta, o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p edi. Dunyo miqyosida har 100 ming bolaga 120 ta to'g'ri keladi[2]. Xususan, O'zbekistonda "13 ta bolalar (go'daklar) uyi (3-4 yosh)da 560 nafar, 16 ta "Mehribonlik" uyi hamda 4 ta Bolalar shaharchasida (3-18 yosh) 1800 nafar, 86 ta maxsus maktab-internatda esa (7-18 yosh) 21 000 nafar, vasiylik, homiylik va patronat asosida 79 ming nafar bola tarbiyalangan"[3] Mazkur muassasalarda yashovchi bolalarning 79 foizini nogironligi mavjud bolalar tashkil etadi[4].

2021-yildan boshlab yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni parvarishlash hamda tarbiyalashning muqobil noinstitutlashtirilgan tizimini joriy qilishga kirishildi. Unga ko'ra "Mehribonlik" uylari faoliyati tugatilishi nazarda tutilgan edi.

2023-yildagi Konstitusiyaviy islohotlar natijasida, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida bolalar masalasiga ham alohida ustuvorlik berilganini ko'rish mumkin. Alohida bitta bob – XIV bob oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangan[5].

2023-yil iyun oyida Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) tashkil etildi.[6] Bu agentlik tuzish orqali bolalarni himoya qilish xizmatlarini birlashtirishga muvaffaq bo'lindi. Bolalarni himoya qilish xizmatlari sifatini yaxshilash, sohaga javobgar tashkilotni mas'uliyatini yanada oshirish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash funksiyalarini tartibga solish va bolalarni himoya qilishga izchil yondashuvni joriy etish imkoniyatlari paydo bo'ldi. IHMA tumanlardagi "Inson" markazlari uchun 4 800 nafar yordamchi tibbiy xodimlar jalb qilgan bo'lsa, 2 352 nafar ijtimoiy yordamchilar va 1 866 nafar xodimlarni yolladi. 2021-2024 yillarda O'zbekistonda 23 ta "Mehribonlik" muassasalari yopildi, natijada, 2 448 nafar bola oila tarbiyasiga berildi[4].

Yangi taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan biri bu shubxasiz "O'zbekiston – 2030" strategiyasidir[8]. Mazkur strategiyadan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun qulay imkoniyatlar yaratish, o'z iste'dodlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun barcha qulay sharoitlarni yaratish, shu bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, bilimli va barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun qulay muhit barpo qilish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida mazkur strategiya ishlab chiqildi. Chunki har qanday davlatning taraqqiyoti avvalo inson qadri bilan o'lchanadi.





“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi aynan ushbu tamoyillarga asoslangan holda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari hisoblangan keksalar, kam ta‘minlangan va boquvchisini yo‘qotgan oilalar, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar va nogironligi mavjud bo‘lgan imkoniyati cheklangan insonlarga e‘tibor va g‘amxo‘rlik qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Aynan mazkur strategiyada bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish hamda jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka **toqatsizlik madaniyatini** shakllantirish, shuningdek ota-ona qaramog‘isiz qolgan **bolalarni parvarishlash bo‘yicha muqobil noinstitutsonallashgan shakllarni** joriy qilish vazifalari qo‘yilgan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda so‘nggi yillarda mamlakatda bolalar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha qonunchilik bazasini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Muhimi, bugungi kunda O‘zbekistonda bolalar farovonligini ta‘minlashga oid samarali huquqiy mehanizm yo‘lga qo‘yilishi bilan bir qatorda, bola huquqlari yo‘lida jiddiy choralar ko‘rilmoqda.

O‘zbekistonda 2024-yilga kelib 2 ta “Mehribonlik” uyi qoldi. Bular Toshkent shahridagi 22-son va 30-son maxsus tipdagi “Mehribonlik” uylaridir.

So‘nggi yillarda qabul qilingan sohaga doir bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari mamlakatda o‘tib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama komil inson bo‘lib voyaga yetishi, rivojlanishi hamda yaxshi kadrlar bo‘lib kamol topishi uchun xizmat qiladi, albatta. Shuningdek, “Mehribonlik” uyi tarbiyalanuvchilari hamda bitiruvchilarining hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari va yetuk, salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishishlari uchun ko‘maklashishi, shubhasiz. Har bir jamiyat o‘zining yosh avlodini har tomonlama himoya qilishga harakat qilar ekan, ularning siymosida Vatanning kelajagi va ravnaqini ko‘radi. Yangi O‘zbekiston hukumati ham aynan shu maqsad yo‘lida yoshlarga keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Bugunga kelib, respublikada “Mehribonlik” uylarini oila muhitiga yaqin bo‘lgan muassasalarga aylantirish amaliyoti davom etmoqda

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar ro‘yhati::

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021-yil 28-iyul kuni kam ta‘minlangan oilalar hamda “Mehribonlik” uylarida istiqomat qiluvchi bolalarni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi/
<https://www.gazeta.uz/uz/2021/07/28/mehribonlik>.
2. O‘zbekistonda yangi “Mehribonlik” uylarini ochmaslik taklif etilmoqda/
<https://www.gazeta.uz/oz/2021/06/30/deinstitutionalization>.
3. Bolalar g‘amxo‘rlikni to‘liq his qilyaptimi? Afsuski, yo‘q. Prezident “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilari haqida./ <https://daryo.uz/2021/07/28/>





4. O'zbekistondagi bolalar va o'smirlar vaziyatining tahlili. UNICEF. – Toshkent, 2024. – B. 7-8, 12.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent:O'zbekiston, 2023. – B. 45-47.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyuldagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-82 – son Farmoni/ <https://lex.uz/ru/docs/6480342>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” gi PF-158 – son Farmoni.

